

ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDA UCHRAYDIGAN
ANTROPONIMLARNING SEMANTIK-STRUKTUR TAHLILI

G‘ayratova E‘zoza Akmaljon qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati

instituti magistranti

gayratovaezoza512@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbek tilshunosligida onomastika va uning ichki sohalarining o‘rganilishi boshlanganiga qariyb 60 yil bo‘lgan bo‘lsa-da, ammo bu sohada mukammal tizim joriy etish uchun yechimini topish kerak bo‘lgan muammolar ham yetarlicha topiladi. Xususan, onomastik birliklarning badiiy matnda qo‘llanishi yoki aksincha, badiiy asarda keltirilgan onomastik birliklarni lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Xususan, toponimlarning badiiy asardagi funksiyasi ham bu dolzarblikning bir qismidir. Ayniqsa, avtobiografik ruhda yozilgan asarlarda qo‘llangan onomastik birliklarning semantik tahlili alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanida qo‘llangan antroponimlar semantik-struktur jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponim, mifonim, Ulug‘bek Hamdam, “Ota” romani, ideonim, ktematonim.

Аннотация: Хотя изучение ономастики и ее внутренних областей в узбекском языкознании началось почти 60 лет назад, существует множество проблем, которые необходимо решить для внедрения совершенной системы в этой области. В частности, особое значение имеет использование ономастических единиц в художественном тексте или, наоборот, изучение ономастических единиц, представленных в художественном произведении, с лингвистической точки зрения. В частности, функция топонимов в художественном произведении также является частью этой актуальности. Особое значение имеет семантический анализ ономастических единиц, используемых в произведениях автобиографического характера. В данной статье антропонимы использованные в романе Улугбека Хамдама «Ота» анализируются с семантической и структурной точек зрения

Ключевые слова: ономастика, антропоним, мифоним, Улугбек Хамдам, роман “Отец”, идеоним, ктематоним.

Abstract. Although almost 60 years have passed since the beginning of the study of onomastics and its internal branches in Uzbek linguistics, there are still enough problems that need to be solved to introduce a perfect system in this field. In particular, the use of onomastic units in a literary text or, conversely, the study of onomastic units presented in a literary work from a linguistic point of view is of particular importance. In particular, the function of anthroponyms in a literary work is also part of this relevance. The semantic

analysis of onomastic units used in autobiographical works is of particular importance. This article provides a semantic and structural analysis of anthroponyms found in Ulugbek Hamdam's novel “Ota”.

Keywords: *onomastics, anthroponym, mifonym, Ulugbek Hamdam, novel “Father”, ideonym, ktematonym.*

KIRISH

Antroponimiya sohasi bilan E.Begmatov, G'.Sattorov, S.Rahimov, N.Husanov, I.Xudoynazarov, R.Xudoyberganov, S.Kenjayeve kabi olim va olimlar shug'ullanishgan. 1965-yilda E.Begmatovning “O'zbek tili antroponimikasi”, 1988-yilda esa I.Xudoynazarovning “Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari onomastika sohasi bo'yicha yaratilgan dastlabki tadqiqotlar hisoblanadi. So'nggi yillarda ham antroponimika sohasi bo'yicha turli tadqiqot ishlari yatilmoqda. Masalan, 2019-yilda yaratilgan S.Kenjayeveaning “O'zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi” nomli tadqiqot ishida o'zbek tili antroponimlarining yuzaga kelish motivlari aniqlangan va tavsiflangan, ularning ismlar semantik strukturasi shakllanishidagi o'rni va roli ochib berilgan [Yusupova O., Islamova D., Turdimurodov U; 2013: 15]. S.Kenjayeve ismlarning asosiy tiplariga quyidagilarni kiritadi:

1. Bag'ishlov ismlar.
2. Etnonimlarga nisbat berilgan antroponimlar.
3. Diniy tushuncha va aqidalar, tasavvurlar motiv bo'lgan ismlar.
4. Istak motivli antroponimlar.
5. Tasviriy motivli antroponimlar [Kenjayeve S; 2019: 14-21].

Keyingi yillarda antroponimlar tarkibiga kiruvchi laqablar bo'yicha ham bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, yaqin yillarda bajarilgan tadqiqotlardan biri Z.Xusanovanning “Laqablarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularning o'zbek tili antroponimik tizimidagi o'rni” nomli tadqiqot ishida laqab tushunchasi, laqabning ham ism kabi qadim tarixga egaligi, laqablar shakllanishining lisoniy mexanizmlari, laqablarning ijtimoiy-tarixiy va madaniy manbalari tadqiq qilingan [Yusupova O., Islamova D., Turdimurodov U; 2013: 38].

Asarda Oychechak, O'tkir, Po'lat, Yog'du, Amir Temur, Toshdomla, Erboy, Eljon, Kenjavoy, Yaxshiboy, Jabbor, Haydar, O'g'iloy, Tursun (tabib), Sevinch, Kenjavoy, Zolushka, To'lqin (mirob), To'xtasin (folbin), O'ktam, Teshavoy(direktor), Turdi, Toshxo'ja, Tursunoy, Avazbek, Sotvoldivoy, Ochil karnay, Tursun ota, Bekjon, Elbek, Yulduz, Yodgor, Muso, O'lmas, Otajon polvon, Yorqin, Balayan, Karagashov, Nikita, Gyote, Verter, Gitler, Botir, Olya, Stalin, Fakil kabi atoqli otlardan foydalanilgan. Bu atoqli otlar o'z ichiga teonimlar, antroponimlarni qamrab olgan. Teonim yunonchadan olingan bo'lib, teog – xudo (Olloh) va onoma – nom so'zlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan va bu Ollohning nomi va atributlarning atoqli oti degan ma'noni bildiradi. Teonimiya esa shunday atoqli otlarning to'plami, yig'indisi, teonimika shunday onomastik ko'lamga mansub atoqli otlarni o'rganuvchi soha ma'nosini bildiradi [Begmatov E., Uloqov N; 2006:

75]. Teonimlar qadimiy lug‘aviy birliklar bo‘lib, ular animizm, totemizm, fetishizm, tabu, evfemizm kabilar bilan bog‘liq jarayondir. Asarda bor-yo‘g‘i ikkita teonim qo‘llangan bo‘lib, bular payg‘ambarlar va farishtalar nomlaridir:

Keyin shirin joningni Jabborga qo‘shqo‘llab beraver. [U. Hamdam; 2024: 29]

Xuddi Muso payg‘ambarning to‘g‘ri hassasi katta ilonga aylanib boshqa barcha egri hassalarni – mayda ilonlarni yutib yuborgandek bo‘ldi. [U. Hamdam; 2024:196]

Payg‘ambarlar nomlari teonimlarning asosiy qismini tashkil qiladi. “Payg‘ambar” so‘zi forscha bo‘lib, “payg‘om” – xabar, “burdan” – keltirmoq, ya‘ni “xabar keltiruvchi”, “elchi” ma‘nolarini bildiradi [Yo‘ldoshev B; 2011: 68]. Yuqorida qo‘llangan Muso payg‘ambar nomi hisoblanadi. Jabbor esa Jabroil alayhissalomning nomi bo‘lib, farishta nomini anglatuvchi teonim hisoblanadi.

Antroponim – asli grekcha so‘z bo‘lib, antro – odam + onim, ya‘ni kishilarga berilgan atoqli otlardir. O‘zbek tilida bu termin o‘rnida ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari kabi terminlar qo‘llaniladi [Begmatov E; 2013: 10]. Mazkur aarda rus antroponimiyasi va o‘zbek antroponimiyasi birliklari aks etgan. Antroponimiya – bu biror tildagi antroponimlar majmuyidir.

Antroponimika o‘rganadigan, antroponimiyaning fondini tashkil qiladigan antroponimik birliklarga nimalar kiradi? Konkret olinadigan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi kishi atoqli oti bo‘lgan quyidagi onomastik vositalar o‘zbek antroponimiyasining birliklaridir:

1) ismlar – konkret shaxsga berilgan ismlar; 2) laqablar; 3) taxalluslar; 4) o‘zbeklarda shaxsni nomlashning o‘tmishda mavjud bo‘lgan ba‘zi shakllari (“qizi”, “o‘g‘li”) yordamida nomlash; 5) shaxsni uning ismiga o‘tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida; 6) o‘tgan asrning 20-30- yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari. Yuqorida keltirilganlar antroponimik birliklardir va ularni o‘zbek antroponimiyasi o‘rganadi [Begmatov E; 2013: 11]. Shunga ko‘ra, Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanida uchraydigan antroponimlarni semantik-struktur jihatdanquyi dagicha tahlil qilishimiz mumkin:

Avazbek – o‘zbekcha so‘z bo‘lib, oldingi turmagan bolalar o‘rniga, evaziga kelgan bola ma‘nosini anglatadi [Begmatov E; 2007: 22]. Bu ism tarkibidagi –bek affiksi ot so‘z turkumining subyektiv baho formasi bo‘lib, erkalash ma‘nosini ifodalaydi.

Bekjon – fors-tojikchadan olingan bo‘lib, beklar nasliga mansub, jon kabi aziz bola ma‘nolarini ifodalaydi [Begmatov E; 2007: 54]. Bu ism ikki qismdan, ya‘ni bek so‘ziga – jon subyektiv baho formasining qo‘shiluv natijasida hosil bo‘lgan.

Botir – mo‘g‘ulchadan olingan bo‘lib, mard, pahlavon, dovyurak, jasur degan ma‘nolarni anglatadi [Begmatov E; 2007: 73].

Elbek – o‘zbekcha bo‘lib, elning boshlig‘i, sardori degan ma‘noni anglatadi [Begmatov E; 2007: 509]. Bu antroponim qo‘shma so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, bu yerda “bek” qo‘shimcha emas, balki so‘zdir. “Bek” hukmdor, boshliq ma‘nolarini ifodalaydi.

Eljon – fors-tojikcha bo‘lib, elning suyukli, aziz farzandi deganidir [Begmatov E; 2007: 510]. Bu atoqli ot ham qo‘shma so‘zdan tashkil topgan.

Erboy – o‘zbekcha bo‘lib, jasur, mard bola ma’nosini bildiradi [Begmatov E; 2007: 513]. Bu ism sodda so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, “boy” bu yerda qo‘shimcha vazifasini bajarmoqda. Lekin asarda bu antroponim o‘z ma’nosida qo‘llanmagan. Asardagi Erboy mard, jasur emas, balki pastkash, xudbin, razil kimsa sifatida tasvirlangan.

Haydar – arabchadan olingan bo‘lib, arslon, jasur, dovyurak, qudratli degan ma’nolarni anglatadi. Bu nom xalifa Alining laqabi bo‘lgan. Shuningdek, Haydar erkak bolalarda orqaga o‘rib qo‘yiladigan bir tutam soch ma’nosini ham ifodalaydi, u sog‘lik, osoyishtalik ramzi deb hisoblanadi va bola ulg‘aygach, ma’lum marosimdan keyin qirqiladi [Begmatov E; 2007: 567]. Bu antroponim tadbir kuni tavallud topgan kishilarga nisbatan qo‘yiladi, aynan mana shu antroponimning etimologiyasi shanba kuni sotish uchun bozorga mol haydash – mol haydar kuni kelib chiqqan [Nosirov U; 1965: 197]. Bundan tashqari bu nom atoqli otga o‘tgunga qadar yovvoyi hayvon nomini bildirgan, ya’ni uning ma’nosi “arslon” bo‘lgan [Begmatov E; 2013: 109].

Kenjavoy ismi bolalarning tug‘ilish navbati hamda katta-kichiklik tushunchalarini anglatuvchi leksema hisoblanadi [Begmatov E; 2013: 112]. Bu antroponim o‘zbekcha bo‘lib, keksa yoshdagi ota-onaning oxirgi bolasi, oxirgi, kichik bola ma’nolarini anglatadi [Begmatov E; 2007: 184]. Bu ism sodda so‘zdan iborat bo‘lib, ism tarkibidagi –voy affiksi otning lug‘aviy shakl yasovchi, ya’ni erkalash qo‘shimchasidir. Asarda bu ism ikki o‘rinda qo‘llanilgan bo‘lib, biri Oychechak opa va O‘tkir akalarning kunjara yeb, qorni shishib o‘lgan farzandi va ikkinchisi Po‘latning hamkasbi Kenjavoy o‘t o‘chiruvchidir.

Ochil karnay – o‘zbekcha ism bo‘lib, ochilsin, ya’ni kasaldan (ko‘rlik, eshitmaslik va soqovlik) xalos bo‘lsin degan ma’noni bildiradi [Begmatov E; 2007: 330]. Boshqa adabiyotlarda esa uning etimologiyasi quyidagicha berilgan: agar chaqaloq tug‘ilgandan to yetti kunga qadar ko‘zi ochilmasa, shu ism qo‘yiladi. Ism bilan birga kelgan “karnay” so‘zi esa laqab hisoblanadi, ya’ni bu shaxsning kasb-kori, mehnat malakasi bilan bog‘liq nisbiy laqab hisoblanadi [Begmatov E; 2013: 64].

Oychechak – o‘zbekcha bo‘lib, oydek va chechak, ya’ni guldek chiroyli qiz ma’nosini anglatadi [Begmatov E; 2007: 317]. Asarda esa u sho‘x, shaddod ayol obrazi sifatida tasvirlangan.

Otajon polvon – fors-tojikcha bo‘lib, otasining ismi berilgan aziz bola deganidir. [Begmatov E; 2007: 328]. Asarda Po‘lat Otajon polvon avlodidan ekanligi qayd etib o‘tilgan: ... Otajon polvon avlodining Sevinchda to‘xtab qolish ehtimoli borligi haqida ezilib o‘yladi, o‘ylab ezildi [U.Hamdani; 2024: 122].

Po‘lat – fors-tojikcha bo‘lib, po‘latdek mustahkam, yashaydigan, umri uzoq bola ma’nosini anglatadi [Begmatov E; 2007: 343]. Buni biz asarni o‘qish davomida ham anglashimiz mumkin, ya’ni yozuvchi Po‘latni asarga bejiz olib kirmagan va asarda uning irodasi metindek qattiq, boshidan qanchadan qancha yaxshi va yomon kunlarni o‘tkazgan bo‘lsa-da, hech qachon taslim bo‘lmagan, hayotning past-balandini ko‘rgan, umri uzoq obraz sifatida tasvirlangan.

Sevinch – o‘zbekcha bo‘lib, shodlik, baxtiyorlik hamrohi bo‘lsin yoki sevinchimizga sabab bo‘lgan bola ma’nosini ifodalaydi [Begmatov E; 2007: 384]. Sevinch ismi aslida turdosh otdan atoqli otga ko‘chgan antroponim hisoblanadi. Chaqaloqqa Sevinch deb ot

qo‘yishdi! Chunki sevinchli edi ular! Ming yillik g‘ussa bor edi O‘tkir akaning oilasida. Shu uchun sevinaylik, sevinchlarga yetaylik deb sevinchlanishdi. Qolaversa, bu oilada o‘g‘il-qizlarga turkona ot qo‘yishardi [U.Hamdam; 2024: 79].

Sotvoldivoy – o‘zbekcha bo‘lib, sotib olingan bola, yashovchi, o‘lmaydigan bola ma‘nosini anglatadi [Begmatov E; 2007: 393]. Aslida bu ism “Sotiboldi” shaklida bo‘lib, “Sotvoldi” xalq tiliga moslashgan ko‘rinishidir. Ism ikki fe‘lning, ya‘ni sotib va olmoq fe‘llarining qo‘shiluidan hosil bo‘lgan va ism tarkibidagi –voy affiksi lug‘aviy shakl yasovchi, ya‘ni erkalash qo‘shimchasidir.

Teshavoy – o‘zbekcha bo‘lib, tesha kabi mustahkam va o‘tkir bo‘lib o‘ssin, baloqazolarga chidamli bo‘lsin degan ma‘noni bildiradi [Begmatov E; 2007: 410]. Ism tesha +voy dan iborat bo‘ib, turdosh otga –voy affiksining qo‘shiluidan hosil bo‘lgan.

Toshxo‘ja – o‘zbekcha-forscha bo‘lib, xo‘jalar avlodiga mansub toshdek mahkam, umri uzoq bola ma‘nosini ifodalaydi [Begmatov E; 2007: 423].

Turdi – o‘zbekcha bo‘lib, toxtaydi, yashaydi, sog‘ bo‘ladi ma‘nosini anglatadi [Begmatov E; 2007: 427].

Tursun – o‘zbekcha bo‘lib, yashasin, omon, sog‘ bo‘lsin ma‘nosini anglatadi, Tursunoy esa uning shakli hisoblanadi [Begmatov E; 2007: 429]. Odatda, o‘g‘il bolalarga Tursun, qizlarga Tursunoy ismlari qo‘yiladi. Asarda ham bu antroponimlar xuddi shunday holda qo‘llangan.

To‘xtasin – o‘zbekcha bo‘lib, to‘xtasin, yashab ketsin, umri uzoq bo‘lsin ma‘nolarini anglatadi [Begmatov E; 2007: 439].

Tursun tabib, To‘lqin mirob, To‘xtasin folbin, Teshavoy director – bu atoqli otlar tarkibidagi turdosh otlar shaxsning kasb-kori, mehnat malakasi bilan bog‘liq nisbiy laqablar hisoblanadi.

Yulduz – o‘zbekcha so‘z bo‘lib, toleyi yulduzdek yuksak va porloq bo‘lsin degan ma‘noni bildiradi [Begmatov E; 2007: 523]. Yulduzxon esa uning shakli bo‘lib, erkalash ottenkasini beradi. Asarda Yulduz ismi ham ikki o‘rinda, ya‘ni adash shaklida qo‘llanilgan. Bir o‘rinda Yog‘duning onasi sifatida, boshqa o‘rinda esa Yog‘duning singlisi sifatida berilgan: Qaynona bo‘lmish Yulduz xola bo‘lsa, boshiga tashlangan oppoq ro‘molini uchini tishlagan “piq-piq” yig‘lardi [U.Hamdam; 2024: 76]. Siz qamalgandan keyin bolani tug‘ruqxonadan Yulduz singlimiz oldi. Parvarishladi, lekin opasi Yog‘dudan keyin u ham ko‘p yashamadi [U.Hamdam; 2024: 179].

Yaxshiboy – o‘zbekcha bo‘lib, maqbul, tuzuk, munosib; xushaxloq, odobli, ko‘ngilga yaqin ma‘nolarini bildiradi [Begmatov E; 2007: 526]. Ism tarkibidagi –boy esa otning lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchasidir.

O‘ktam – o‘zbekcha ism bo‘lib, mehr-muruvvatli, g‘amxo‘r yoki mag‘rur, viqorli, mustaqil degan ma‘nolarni anglatadi [Begmatov E; 2007: 528].

O‘lmas – o‘zbekcha bo‘lib, o‘lmaydi, umri uzoq bo‘ladi deb umid qilingan bola ma‘nosini anglatadi [Begmatov E; 2007: 528]. O‘lmas domla – diniy ma‘noli nisbiy laqab hisoblanadi.

O‘g‘iloy – o‘zbekcha bo‘lib, bu oydek suluv qizdan keyingi farzandimiz o‘g‘il bo‘lsin [Begmatov E; 2007: 536] degan maqsadda qo‘yiladi.

25-Aprel, 2026-yil

Yodgor – fors-tojikcha bo‘lib, tug‘ilgandan keyin ota (yoki ona)si vafot etgan, ulardan esdalik, yodgor bo‘lib qolgan farzand ma‘nosini anglatadi [Begmatov E; 2007: 124]. Asarda ham ushbu antroponim xuddi shu vazifani bajargan:

- Oti nima?

- Kimniki?.. Ha-a, bolanikimi? Bunday bolani oti o‘zi bilan tug‘iladi-ku, Po‘latjon. Yodgor! Onasidan, buvisidan qolgan yodgor... [U.Hamdam; 2024: 186].

Yorqin – o‘zbekcha bo‘lib, hayoti (kelajagi) ravshan, nurli bo‘lsin yoki mehrli, shafqatli bola ma‘nosini anglatadi [Begmatov E; 2007: 128].

Yog‘du – o‘zbekcha bo‘lib, umri yog‘du, shu‘la, nurga to‘la bo‘lsin, ya‘ni baxtli, toleyi baland bo‘lsin ma‘nosini anglatadi [Begmatov E; 2007: 129].

Amir Temur, Gyote – antroponim tarkibidagi avlod- ajdodlar guruhi tarkibiga kiruvchi nom bo‘lib, o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk shaxs ma‘nosini anglatadi. Asarda antroponimlar sifatida adashlar kelgan va biz buni asarni o‘qish jarayonida anglab olamiz. Asarda Yulduz ismi asar boshida asar qahramoni Yog‘duning onasining ismi bo‘lib, asar oxirida esa Yog‘duning singlisining ismi bo‘lib kelishi kuzatiladi. Kenjavoy ismi asarda bir o‘rinda Po‘latning ukasining ismi bo‘lib, boshqa o‘rinda esa Po‘latning hamkasbi o‘t o‘chiruvchi sifatida gavdalanadi. Tursun antroponimi ham adash ma‘nosida qo‘llangan va buni biz turdosh otlar orqali farqlaymiz. Asarda qo‘llangan Tursun ismi tabib va ota turdosh otlari bilan qo‘llanilgan va shu bizga farqlash vazifasini bajarmoqda:

Tashrifchilar naq to‘rt kishi bo‘lib: Yog‘duning qartayib, hassaga suyanib qolgan og‘asi Tursun ota, uning Bekjon va Elbek degan o‘g‘illari hamda Yog‘duning yana bir jiyani [U.Hamdam; 2024: 177].

O‘g‘iloy azayimxon ham, Tursun tabib ham, nimaydi qorabog‘ishlik folbinni oti, ha-a, esim qursin, o‘sha ham, hammasi uni “tug‘mas” deb aytdi [U.Hamdam; 2024:68].

Asarda Nikita, Olya, Balashyan, Karagashov, Stalin, Gitler kabi ruscha-baynalminal ismlar, otasimga Po‘lat Otajonov, Yodgor O‘tkir o‘g‘li kabi antroponimlar kiradi.

“Ota” romanida “PAZ” markali avtobus va dushmanning “DZOT” nomli transport vositalari poreyonim onomastik birligi bo‘lib keladi. Poreyonim har qanday transport vositasining bir nusxasiga berilgan atoqli otdir [Begmatov E; 2013: 40]. Asarda bu tushunchalar quyidagi tarzda aks etgan:

O‘qchiga kelganda “PAZ” markali avtobus pishqirib oyoq ildi [U.Hamdam; 2024: 187].

Bunga javoban dushmanning “DZOT”idan tarillab o‘q uzildi [U.Hamdam; 2024: 32].

Asarda “Maxabxarat” onomastik birligi qo‘llangan bo‘lib, bu ideonim turkumiga mansub birlikdir. Ideonim xalq tarixi uchun ahamiyatli bo‘lgan ba‘zi tarixiy hujjatlar, asarlarning atoqli otidir. Ideonimga ktematonim, dokumentonim, xrononim, geortonim, gemeronim, bibliionim, artionim kabi birliklar kiradi. Asarda qo‘llanilgan “Hind xalqining “Maxabxarat”idagi ma‘budlardan biri Chilonzorga ko‘chib kelib yashayaptimi, devoradi salgina kitob ko‘rgan odam bo‘lsa. [U.Hamdam; 2024: 13]” bu onomastik birlik bibliionim tarkibiga kiradi. Bibliionim har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy, asarlarga qo‘yilgan atoqli otlardir.

25-Aprel, 2026-yil

“Bunday haybatga umrida ilk bor duch kelgan Oychechak opaning to‘lari to‘lib, bo‘lari bo‘ldi, ikki qo‘li ko‘ksida, uch kunlik kelinlardek belining belangisini ham unutganча yerga qarab egildi-yu ruslarning “Kalashnikov” avtomati kabi tarillatib baland ovozda uch marta “Assalomu Alaykum! “Assalomu Alaykum! Assalomu Alaykum!” deb yubord. [U.Hamdani; 2024: 13]” yuqorida qo‘llangan “Kalashnikov” avtomati ktematonim birlik turiga kiradi. Ktematonim xalq tarixi, milliy madaniyati uchun ma‘lum qimmatga ega bo‘lgan ba‘zi nodir qurollar, asbob-uskunalar, buyumlarning bir donasiga berilgan atoqli ot nomidir [Begmatov E; 2013: 46].

“O‘ris ertaklaridagi Zolushkaga aylangandi-qolgandi Sevinchqiz. [U.Hamdani; 2024: 85]” bu gapda esa Zolushka atamasi onomastik birlik sifatida qo‘llangan va bu birlik mifonimiyaga mansubdir. Mifonimiya ertak, epopeya, xalq dostonlari, afsonalarda uchraydigan xayoliy, afsonaviy atoqli otlar, ularning majmuyidir [Begmatov E; 2013: 40].

Xulosa. Asarda qo‘llangan antroponimlarning deyarli barchasi o‘zbekcha ismlar hisoblanadi. Asar bosh qahramonlarining ismlari esa oshaqahramonning xarakteriga mos tarzda tanlangan. Asarda qo‘llangan ismlarda asosan otning lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalaridan foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent. Fan, 2013.
2. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma‘nosi. – Toshkent. O‘zbek Milliy Ensiklopediyasi. 2007.
3. Kenjayeva S. O‘zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi: filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2019.
4. Nazarova N. Antroponimlarning o‘rganilishi. Ilmiy maqola. – International Scientific Conference, 2021.
5. Urmonova H. “Sab‘ai Sayyor” dostonida antroponimlar semantikasi. Ilmiy maqola. – 2024.
6. Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastikasi masalalari. – Samarqand, 2011.
7. Yusupova O., Islamova D., Turdimurodov U. O‘zbek onomastikasi masalalari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2025.
8. Ulug‘bek Hamdam. Ota. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2024.